

O'RTA OSIYO XONLIKALARIDA O'TKAZILGAN HARBIY ISLOHOTLAR

Rishton tumani 2-son Politexnikimi tarix fani

o'qituvchisi

Eraliyeva Muniraxon Zaylobidinovna

email eraliyevamunira2086@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada XVII–XIX asrlarda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarining harbiy tuzilmalari va ularning islohoti jarayonlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Harbiy islohotlarning amalgamoshirilishiga sabab bo'lgan ichki va tashqi omillar, xususan, qabilaaro nizolar, markaziy hokimiyatning zaifligi va Rossiya imperiyasi bosqiniga tayyorgarlik masalalari chuqur o'rganilgan. Har bir xonlikda harbiy islohotlar o'ziga xos yo'nalishlarda olib borilgan bo'lsa-da, ularning aksariyati tizimli strategiyaga ega bo'lmasani sababli kutilgan natijani bermagan. Maqolada ushbu islohotlarning kuchli va zaif tomonlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning tarixiy ahamiyati va bugungi harbiy-strategik tafakkurdagi o'rni ham yoritilgan.

Kalit so'zlar. Tarix, jahon, shaxsiyat, madaniy, milliy, madaniy, ta'lim;

Annotation. This article analyzes the military structures and reform processes of the Bukhara, Khiva, and Kokand khanates in Central Asia during the 17th to 19th centuries, based on historical sources. It examines the internal and external factors that necessitated military reforms, such as tribal conflicts, the weakening of central authority, and the growing threat of Russian imperial expansion. While each khanate pursued reforms in distinct ways, most efforts lacked systematic strategy and thus failed to achieve lasting outcomes. The article provides a comparative analysis of the strengths and weaknesses of these reforms and discusses their historical significance as well as their relevance to contemporary military and strategic thought.

Key words. History, World, personality, cultural, national, cultural, educational;

KIRISH O‘rtal Osiyo hududi tarixan strategik va geosiyosiy jihatdan muhim bo‘lgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Bu hudud orqali qadimdan Buyuk ipak yo‘li o‘tgan bo‘lib, savdo, madaniyat va harbiy yurishlarning markaziy o‘qi sifatida tanilgan. XVI asr oxiri va XVII asr boshlaridan boshlab mintaqada sobiq temuriylar davlati o‘rnida uchta asosiy siyosiy markaz – Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari shakllandi. Bu xonliklar ichki siyosiy kurashlar, ijtimoiy notinchliklar, tashqi bosqinchilik xavfi va o‘zaro raqobat muhitida faoliyat yuritganlar.



Mazkur xonliklarning mavjudligi davrida harbiy salohiyat davlat barqarorligining eng muhim omillaridan biri sifatida qaralgan. Chunki markaziy hokimiyatni saqlab qolish, ichki qozilar va beklar qarshiligini jilovlash hamda tashqi tahdidlarga (xususan, Eron, Qozoq xonliklari, keyinroq esa Rossiya imperiyasi bosqinchiligidagi) qarshi kurashishda harbiy kuch hal qiluvchi rol o‘ynagan. Shu sababli harbiy islohotlar nafaqat mudofaa tizimini kuchaytirish, balki siyosiy hokimiyatni mustahkamlash, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va ijtimoiy tartibni barpo etish vositasi sifatida ham namoyon bo‘lgan. XVIII–XIX asrlarga kelib, harbiy sohadagi islohotlarga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. Chunki aynan shu davrda Rossiya imperiyasi bosqinchilik siyosatini faol yurita boshladi va bu O‘rta Osiyo xonliklarini o‘z harbiy imkoniyatlarini jiddiy ravishda qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi. Shuningdek, ichki ijtimoiy beqarorlik, iqtisodiy qiyinchiliklar va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi harbiy tuzilmaning tanazzulga yuz tutishiga olib keldi. Shunday og‘ir sharoitda xonlar tomonidan harbiy sohada islohotlar o‘tkazishga urinishlar kuzatildi. Bu islohotlar har bir xonlikda turli ko‘rinish va natijalarda namoyon bo‘ldi.



Masalan, Buxoro amirligi Amir Haydar va Amir Nasrullo davrida harbiy kuchlarni markazlashtirishga urinib, zabitlar va qo'mondonlik tizimini takomillashtirishga harakat qildi. Qo'qon xonligida esa yunusxo'ja va Alixon zamonida muntazam qo'shinlar tuzildi, armiya uchun doimiy budget ajratildi. Xiva xonligida ham harbiy qudratni tiklash harakatlari bo'lib o'tdi, biroq bu islohotlar, ko'pincha, sust amalga oshirilgani tufayli aniq natijalarga olib kelmadi.

Harbiy islohotlar tarixini chuqur tahlil qilish orqali biz nafaqat o'sha davr siyosiy iqlimini, balki davlat boshqaruvi, ijtimoiy tuzum va tashqi aloqalar holatini ham anglab olishimiz mumkin. Shuningdek, mazkur islohotlarning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi yoki cheklangan natijalarga olib kelgan sabablarini ochib berish – bugungi tarixiy tahlillar va milliy harbiy strategiya shakllanishida ham muhim nazariy asos bo'la oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI Buxoro xonligida harbiy islohotlar.

Buxoro xonligi XVII–XIX asrlar davomida Movarounnahr mintaqasining siyosiy va diniy markazi bo'lib, uning mavjudligi davomida turli davrlarning amirlari o'z hokimiyatlarini mustahkamlash va tashqi bosqinchilarga qarshi turish maqsadida harbiy tizimda turli islohotlar o'tkazgan. Ayniqsa, Amir Haydar (1800–1826) va uning o'g'li Amir Nasrullo (1826–1860) davrida harbiy sohada sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilgan.

Islohotlarning zarurati: Mahalliy beklarning markaziy hokimiyatga bo'ysunmasligi, Ichki nizolar va qabilaaro to'qnashuvlarning kuchayishi, Qo'shni Qo'qon xonligi bilan siyosiy qarama-qarshiliklar, Rossiya imperiyasining janubga siljish jarayoni, Amir Haydar va Nasrullo tomonidan amalga oshirilgan islohotlar: Muntazam armiya tuzilishi: Harbiy xizmatga yollangan askarlar soni ko'paytirilib, ular alohida qismlarga bo'lingan. Harbiy xizmatga sarf qilinadigan mablag' bevosita markaziy xazinadan ajratilgan.

Zobitlar tayinoti va tarbiyasi: Zobitlar asosan sadoqatli kishilar orasidan tanlanib, ularning sadoqatiga asoslangan lavozimlar berilgan. Bu esa ayrim hollarda harbiy salohiyatdan ko'ra siyosiy sadoqatga ustunlik berilishiga olib kelgan. Harbiy

qurollanish: Asosiy qurollar sovuq qurollar va kam miqdordagi o‘qotar qurollardan iborat bo‘lgan. Mahalliy ustaxonalar faoliyati rivojlantirilgan bo‘lsa-da, zamonaviy yevropacha qurollar yetarli darajada joriy etilmagan.

Qo‘shin joylashuvi va harakatchanligi: Buxoro qo‘shinlari, odatda, doimiy shahar garnizonlarida joylashgan bo‘lib, tez harakat qilish qobiliyati past bo‘lgan.

Shunga qaramay, bu islohotlar ko‘proq ichki siyosiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan bo‘lib, tashqi bosqinchilik xavfiga qarshi jiddiy qarshilik ko‘rsatishga yetarli bo‘lman. Ayniqsa, 1868-yildagi Rossiya qo‘shinlarining Buxoroga yurishi chog‘ida bu zaiflik yaqqol namoyon bo‘lgan.

Qo‘qon xonligida harbiy islohotlar. Qo‘qon xonligi XVIII–XIX asrlar davomida harbiy qudrati bilan ajralib turgan mintaqaviy kuchlardan biri hisoblangan. Xonlikda Yunusxo‘ja (1798–1810), Muhammad Alixon (1822–1842) va Xudoyorxon (1845–1875) davrida harbiy islohotlarga alohida e’tibor berilgan. Farg‘ona vodiysining zinch joylashganligi va resurslar uchun ichki kurashlar, Buxoro va Xiva bilan siyosiy va iqtisodiy raqoba, Qirg‘iz va qipchoq urug‘larining beqarorligi; Rossiya bosqinchiligining kuchayib borishi.

Asosiy islohotlar quyidagilarni o‘z ichiga olgan; Qorachilar tizimi: Bu harbiy guruh muntazam armiya sifatida xizmat qilgan. Ular xonning bevosita buyrug‘i ostida harakatlanib, davlat ichki xavfsizligini ta’milagan. Doimiy harbiy budget: Qo‘qon xonlari harbiy xizmat uchun alohida byudjet ajratgan bo‘lib, bu moliyaviy jihatdan armiyani doimiy tayyorgarlikda ushlab turishga yordam bergan.

Yollanma qo‘shinlar: Mahalliy va tashqi najotkorlar (yollanma askarlar) xizmatga olinib, ularning harbiy tajribasidan foydalanilgan. Harbiy sanoat: Qurol-yarog‘ ishlab chiqaruvchi mahalliy ustaxonalar faoliyati qo‘llab-quvvatlangan, biroq sanoat hajmi kichik bo‘lgani sababli qurollanish yetarli darajada emas edi. Shunga qaramay, Qo‘qon xonligining ichki siyosiy kurashlari, xususan, Xudoyorxonning o‘z hokimiyatini saqlab qolish uchun ortiqcha zo‘ravonlik va haddan ziyod soliq siyosati olib borishi, armiyaning ichki barqarorligiga putur yetkazdi. 1876-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan xonlik tugatilgan.

Xiva xonligida harbiy islohotlar. Xiva xonligi o‘zining geografik joylashuvi – Amudaryo quyi oqimi va Qoraqalpog‘iston hududlarida joylashganligi sababli hamisha tashqi bosqinchilik tahdidi ostida bo‘lgan. Shu bois harbiy sohada islohotlarga ehtiyoj doimo mavjud edi. Ayniqsa, Muhammad Rahimxon II (1864–1910) davrida bu borada aniq choralar ko‘rilgan.

Yollanma askarlar sonini ko‘paytirish: Mahalliy va qoraqalpoq yigitlari orasidan harbiy xizmatga yoshlar yollanib, ular uchun maxsus harbiy ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Harbiy qurollanishni kuchaytirish: Qadimiy sovuq qurollar bilan bir qatorda Yevropadan keltirilgan o‘qotar qurollardan foydalanish holatlari ham mavjud bo‘lgan.

Mudofaa minoralari va qal’alarni mustahkamlash: Xivada va uning atrofida strategik nuqtalarda mudofaa devorlari, qal’alar va harbiy minoralar barpo etilgan.

Biroq bu islohotlar ko‘proq mudofaa xarakteriga ega bo‘lib, harbiy kuchlarning hujumchanlik salohiyatini oshira olmagan. Natijada, 1873-yilda Rossiya generali Kaufman boshchiligidagi qo‘sishlar Xiva xonligini osongina egallagan.

Qiyosiy tahlil va umumiylar xulosalar:

Xonlik	Islohot bosqichlari	Kuchli jihatlar	Zaif tomonlar
Buxoro	1800–1860	Zabitlar tizimi, markaziyligining qo‘mondonlik	Zamonaviy qurollarning yo‘qligi
Qo‘qon	1800–1870	Muntazam qo‘sish, harbiy byudjet	Ichki siyosiy beqarorlik
Xiva	1860–1873	Qal‘a va mudofaa tizimi	Harbiy strategiyaning zaifligi

Mazkur tahlil shuni ko‘rsatadiki, xonliklardagi harbiy islohotlar, asosan, qisqa muddatli va rejalashtirilmagan bo‘lib, tizimli strategiyaga asoslanmagan. Bu esa ularning Rossiya imperiyasi bosqinchiligi oldida bardosh berolmasligiga sabab bo‘lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki O‘rta Osiyo xonliklarida XVII–XIX asrlarda amalga oshirilgan harbiy islohotlar, garchi izchil va mukammal bo‘lмаган bo‘lsa-da, o‘sha davr siyosiy, ijtimoiy va geosiyosiy sharoitlariga nisbatan muhim tarixiy hodisalar sirasiga kiradi. Har bir xonlik o‘zining siyosiy tuzilmasi, iqtisodiy imkoniyatlari, ijtimoiy qatlamlari va tashqi tahdidlariga qarab harbiy islohotlarni turlicha yo‘nalishlarda olib borgan.

Buxoro xonligi misolida ko‘rsak, harbiy islohotlar ko‘proq ichki siyosiy beqarorlikni jilovlashga, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga va mahalliy beklarning mustaqilligini cheklashga yo‘naltirilgan. Amir Haydar va Amir Nasrullo davrida amalga oshirilgan islohotlar armiyani markazlashtirish va tartibga solish uchun muhim poydevor bo‘lgan. Biroq bu islohotlar asosan konservativ tuzumlar doirasida olib borilganligi sababli zamonaviy yondashuvlardan yiroq bo‘lib qolgan. Qo‘qon xonligida esa harbiy islohotlar nisbatan faol va tizimli bo‘lgan. Xonlikda muntazam armiya, yollanma askarlar va maxsus harbiy byudjet mavjud edi. Ayniqsa, Yunusxo‘ja va Muhammad Alixon davrida armiya tuzilmasida yangiliklar joriy etilgan, qurollanish darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan. Shunga qaramay, xonlikdagi ichki siyosiy parokandalik, qabilaaro nizo va sadoqatsiz zabitlar tizimining kuchayishi harbiy islohotlarning muvaffaqiyatli bo‘lishiga to‘sqinlik qilgan.

Xiva xonligida esa islohotlar ko‘proq mudofaa xarakterida bo‘lgan. Muhammad Rahimxon II tashqi bosqinchilikka qarshi tayyorgarlik ko‘rish maqsadida harbiy tuzilmalarni kuchaytirishga harakat qilgan. Biroq harbiy texnologiyalar, intizom va zamonaviy harbiy tayyorgarlik yetishmasligi sababli bu islohotlar ham uzoq muddatli natijalar bermagan. Xiva qo‘shinlari an’anaviy tuzilmada saqlanib qolgan va Rossiya imperiyasi bilan to‘qnashuvda yirik yo‘qotishlarga uchragan. Harbiy islohotlarning umumiyl zaifliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Islohotlarning mahalliy va qisqa

muddatli xarakterga ega bo‘lishi; Markaziy hokimiyat bilan mahalliy zodagonlar o‘rtasidagi mojarolar; Harbiy texnologiyalar va zamонавиј qurollarning yetishmasligi;

Harbiy bilim va tajriba yetishmovchiligi, harbiy kadrlar tayyorlash tizimining mavjud emasligi; Islohotlarning tashqi siyosiy strategiyadan ko‘ra ichki siyosiy ehtiyojlarga xizmat qilganligi.

Ayni shu zaifliklar oxir-oqibatda O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi bosqiniga qarshi samarali qarshilik ko‘rsatolmasligiga olib kelgan. Natijada XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, barcha xonliklar o‘z suverenitetidan mahrum bo‘lib, yarim mustaqil yoki to‘la mustamlaka shakliga o‘tgan. Biroq, bu islohotlar tarixiy jarayon sifatida o‘rganilganda, ular o‘sha davr hukmdorlarining siyosiy tafakkuri, harbiy imkoniyatlari va davlat boshqaruvi haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Bugungi kunda tarixiy merosni o‘rganish, xususan, o‘sha davrdagi harbiy strategiyalarni tahlil qilish orqali biz o‘z milliy xavfsizlik konsepsiymizni tarixiy ildizlar bilan boyitishimiz mumkin. Shu bois, O‘rta Osiyo xonliklaridagi harbiy islohotlarni faqat muvaffaqiyatsizliklar nuqtayi nazaridan emas, balki o‘z davrining siyosiy-iqtisodiy realiyalaridan kelib chiqib baholash zarur. Ular mintaqaning harbiy-siyosiy taraqqiyotida muhim tajriba maktabi bo‘lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 30 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. 262, 251-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 30 b.

4. Giesecke H. Was kann die Schule zur Werteerziehung beitragen?, (Eds: Sabine Gruehn, Gerhard Kluchert, Thomas Koinzer), Was Schule macht: Schule, Unterricht und Werteerziehung. Basel:Beltz Verlag, 2004, p. 236.

5.O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma - T.: Yangi nashr, Respublika ta’lim markazi, 2022, - 252 b.

6. Toshev S. (2020). TARIX FANINI O’QITISHNDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Science and Education, 1(Special Issue), 6

7. Faxriddin B., No‘monbek A. ABS SISTEMASI BILAN JIHOZLANGAN M1 TOIFALI AVTOMOBILLARNING TORMOZ SAMARADORLIGINI MATEMATIK NAZARIY TAHLILI //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – Т. 4. – №. 1. – С. 333-337.

8. Xuzriddinovich B. F. et al. ABS BILAN JIHOZLANGAN AVTOMOBILNI TORMOZ PAYTIDA O ‘ZO ‘ZIDAN VA MAJBURIY TEBRANISHLARINI TORMOZ SAMARADORLIGIGA TA’SIRINI TAHLIL QILISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 47. – №. 4. – С. 81-87.

9. Karshiev F. U., Abduqahorov N. ABS BILAN JIHOZLAHGAN M1 TOIFALI AVTOMOBILLAR TORMOZ TIZIMLARINING USTIVORLIGI //Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 787-791.

10.Qurbanazarov S. et al. ANALYSIS OF THE FUNDAMENTALS OF MATHEMATICAL MODELING OF WHEEL MOVEMENT ON THE ROAD SURFACE OF CARS EQUIPPED WITH ABS //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – Т. 4. – №. 8. – С. 45-50

11.Каршиев Фахридин Умарович, Н.Абдуқаҳоров ИЗУЧЕНИЕ МИКРОСТРУКТУРЫ СТАЛИ В МАТЕРИАЛОВЕДЕНИИ//<https://www.iupr.ru/6-121-2024>

12. Xusinovich T. J., Ro‘zibayevich M. N. M1 TOIFALI AVTOMOBILLARNI TURLI MUHITLARDA TORMOZLANISHINI TAHLIL QILISH VA PARAMETRLARINI O ‘RGANISH.